

MANBAA VA MAQSADLI MADANIYATLARNI TUSHUNISH

Tursunboyeva Oydinoy

Andijon davlat chet tillari

Ingliz filologiyasi o'qitish metodika va

tarjimashunoslik fakulteti

Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi

1-bosqich 101- guruh talabasi.

Ilmiy rahbar: Abdurahmanov To'raxon

,Andijon davlat chet tillari imstituti

Gid hamrohligi madaniyatlararo muloqot va

tarjimashunoslik kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Bu maqolada “Manba va maqsadli madaniyatni tushunish” mavzusida yozilgan bo‘lib, unda til va madaniyat xilma-xilligi, ona tilining roli, globalizatsiya va migratsiya sharoitida manba va maqsadli madaniyatni uyg‘unlashtirish masalalari tahlil qilinadi. Maqolada dunyo tillarining statistik holati, yo‘qolish xavfi ostidagi tillar foizi, internet kontentidagi til taqsimoti kabi ma’lumotlardan foydalanilgan. Shuningdek, manba va maqsadli madaniyatlarni anglashning shaxsiy va jamiyat darajasidagi ahamiyati, global madaniyatlarni hurmat qilish va moslashuvchanlik ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar ;manba madaniyati, maqsadli madaniyat ,til xilma-xilligi ,ona tili ,madaniy moslashuv ,globalizatsiy, migratsiya ,internet va madaniyat ,shaxsiy identitet ,madaniy integratsiya.

Bugungi dunyoda insoniyatda 7000 dan ortiq til mavjud bo‘lib, har bir til o‘ziga xos madaniy merosni, urf-odatlarini, tarixiy tajribalarni va xalq xotirasini saqlab keladi, bu tillar va ular bilan bog‘liq madaniyat insoniyat boyligining asosi hisoblanadi va ular butun dunyo bo‘ylab ta’lim, muloqot va ijtimoiy integratsiyada muhim rol o‘ynaydi, ammo statistik ma’lumotlarga ko‘ra dunyo tillarining 50 foizi yo‘qolish xavfi ostida, har ikki

haftada bitta til butunlay yo‘qolib, uning bilan birga xalqning urf-odatlarini, xalq og‘zaki ijodi, diniy marosimlar, she‘riyat va folklor ham yo‘qoladi, bu esa madaniy xilma-xillikning pasayishiga, global madaniyatlarning bir tekisga yaqinlashishiga olib keladi va shuning uchun bugungi kunda manba madaniyati, ya‘ni insonning ona tili, oilasi, jamiyati va xalqiga oid qadriyatlarni saqlash va maqsadli madaniyat, ya‘ni yangi muhit, global muloqot maydoni yoki boshqa xalqlar madaniyatini tushunish va ularga moslashish bir vaqtning o‘zida zarur bo‘lib qoldi, globalizatsiya, migratsiya, internet va texnologiyalar tufayli odamlar ko‘p madaniyatli muhitda yashaydi, o‘qiydi va ishlaydi, agar kishi faqat manba madaniyatga yopishib olsa, yangi muhitda moslashishda qiynaladi, aksincha faqat maqsadli madaniyatga intilsa, u o‘z ildizini, tilini va tarixini yo‘qotishi mumkin, bu esa ruhiy salomatlik va ijtimoiy integratsiyaga salbiy ta‘sir qiladi, shuning uchun har bir inson manba va maqsadli madaniyatni bir-birini to‘ldiruvchi vosita sifatida anglashi lozim, til esa bu jarayonda eng muhim vosita, chunki ona tilini yaxshi biladigan inson o‘z fikrini erkin ifodalashga qodir bo‘ladi va shu bilan birga boshqa tillarni o‘rganish unga global dunyoqarashni kengaytiradi, talaba yoki migrant yangi jamiyatga kirganda, u yangi til va madaniyatni o‘rganishi, lekin ona madaniyati bilan aloqani uzmasligi kerak, agar u ona madaniyatini unutib yuborsa, identiteti zaiflashadi, agar faqat yangi madaniyatga yopishib olsa, u yangi jamiyatda ijtimoiy izolyatsiyaga uchrashi mumkin, shuningdek, internetdagi global kontent ham madaniy xilma-xillikni aks ettirishda yetarli emas, statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, veb-sahifalarning 50 foizi ingliz tilida bo‘lib, bu kichik tillar va madaniyatlar uchun imkoniyatlarni keskin kamaytiradi, bu holat o‘quvchilar, talabalar va yoshlar uchun ona tilida ma‘lumot izlash imkoniyatini kamaytiradi, global media, ilmiy maqolalar, film va kitoblar ko‘pincha eng ommabop tillarda bo‘ladi, natijada yoshlar ko‘pincha ona tilidan voz kechib, global tilda o‘qish va ishlashga majbur bo‘ladi, bu esa manba madaniyatning yo‘qolishiga olib keladi, til yo‘qolishi bilan birga madaniyat, tarixiy tajriba va qadriyatlar ham yo‘q bo‘ladi, til bilan birga o‘tgan avlodlarning dunyoqarashi, urf-odatlarini, etika va san‘ati ham yo‘qoladi, shuning uchun manba va maqsadli madaniyatni tushunish — bu faqat til bilish emas, balki o‘zligini saqlab qolish va global jamiyatga moslashish san‘ati hisoblanadi, talaba yoki migrant chet elda o‘qiyotgan yoki ishlayotgan bo‘lsa, u ona tilini va madaniyatini unutmasdan yangi madaniyat va tilni

hurmat bilan o'rganishi, har ikkisini uyg'unlashtirishi zarur, bu unga keng dunyoqarash, madaniy moslashuvchanlik va global fuqarolik ruhini beradi, shuningdek, maktablar va universitetlar ko'p tilli va madaniyatlarni hurmat qiluvchi muhit yaratishi muhim, ona tilida o'quv materiallari, tarjima, madaniy tadbirlar, urf-odatlarni o'rgatuvchi klub va jamiyatlar manba madaniyatni saqlab qolish va maqsadli madaniyatga moslashishni osonlashtiradi, yangi tillarni o'rganish va boshqa xalqlar madaniyati bilan tanishish, ularni hurmat qilish kishi ko'lamini kengaytiradi, moslashuvchanlikni oshiradi, iqtisodiy hamkorlik, ilm-fan almashuvi, sayohat va migratsiya tezligi oshgani sababli biror madaniyatga yopishib qolish imkoniyatlarning tushishini anglatadi, til va madaniyat yo'qolishi faqat kichik jamoalar uchun emas, butun insoniyat uchun yo'qotish demak, har bir til va madaniyat inson ongining noyob shakli, dunyoqarashini saqlab turadi, agar barcha kichik madaniyatlar yo'qolib, faqat bir nechta madaniyat qolsa, dunyo bir xil bo'lib qoladi, rang-baranglik pasayadi, insoniyat ma'naviy boyligi kamayadi, shuning uchun manba va maqsadli madaniyatni kontradiktsiya deb emas, imkoniyat deb ko'rish lozim, tilimizni va madaniyatimizni saqlab qolish bilan birga dunyoga ochiq qalb bilan yondashish kerak, bunda global hamjamiyatda hurmat, tushunish va tinchlikni rivojlantirish, turli madaniyatlarni birlashtirish, bilim va urf-odat almashinuvi imkoniyatlarini oshirish mumkin, madaniyat o'zligimizni shakllantiradi va uni saqlash orqali inson nafaqat shaxsiy, balki jamoaviy va global darajada boylik yaratadi, shunday ekan har bir inson o'z manba madaniyati bilan maqsadli madaniyatni uyg'unlashtirib, til, urf-odat va qadriyatlarni hurmat qilgan holda global dunyoda muvaffaqiyat qozonadi, bu esa tinchlik, do'stlik va hamjihatlikni oshiradi, shaxsiy identitetni saqlaydi va insoniyat madaniy xilma-xilligini mustahkamlaydi, shu tariqa manba va maqsadli madaniyatni tushunish, hurmat qilish va uyg'unlashtirish zamonaviy talabning eng muhim vazifalaridan biriga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO. Driving Literacy through Linguistic Diversity and Mother Language-Based Learning. Paris: UNESCO Publishing, 2021.
2. Nature. Language extinction and preservation. 2021.
3. Statista. Most common languages on the Internet. 2023.